

MOLIYAVIY XIZMATLAR EKSPORTINI YAXSHILASH

*Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Namangan
filiali Bank ishi yo`nalishi 4- kurs talabasi*

Raxmanova Go`zal Xamidullo Qizi
Rahmanovaguzal562@gamil.com

Annotatsiya: Ushbu maqola xalqaro moliyaviy xizmatlarni exportini hozirgi holati, rivojlanishi, imkoniyatlarini, va yuzaga kelayotgan muammolarini ko`rib chiqishga qaratilgan bo`lib, zamonaviy iqtisodiyot muhitda moliyaviy xizmatlarda faoliyat yuritish uchun zarur bo`lgan asosiy omillarni aniqlashga yordam beradi, shuningdek, maqolada moliyaviy xizmatlarning rivojlanishi tahlil qilinadi. Xizmatlar exporti , davlat moliyaviy xizmatlari, moliyaviy soxalar , iqtisodiy hamkorlik, export xizmatidan foydalanishni yangi imkoniyatlari ko`rib chiqiladi. O`zbekiston sharoitida amalga oshirilayotgan moliyaviy xizmatlar va ularing exportini rivojlantirishda muhim ro`l o`ynaydigan omillar takidlanadi.

Kalit so`zlar : Xizmat exporti, Davlat moliyaviy xizmatlar , Moliyaviy soxalar , Iqtisodiy hamkorlik.

Аннотация: Целью данной статьи является рассмотрение текущего состояния международного предпринимательства, тенденций его развития, возможностей и возникающих проблем, а также выявление ключевых факторов, необходимых для успешного , функционирования в современных экономических условиях. В статье также анализируются перспективы развития международного предпринимательства в современных условиях. Рассматриваются новые возможности для международного бизнеса, основанные на цифровой трансформации , зеленой экономике и инновациях. Подчеркивается, что реализуемые в Узбекистане экономические реформы и региональное сотрудничество играют важную роль в развитии международного предпринимательства .

Ключевые слова: Международное предпринимательство, Перспекивы развития, Цифровая трансформация, Зеленая экономика, Инновации, Экономические реформы, Региональное сотрудничество, Узбекистан развитие бизнеса.

Abstract: This article aims to review the current status, development , opportunities and amerging challenges of international financial services exports , and helps to identifu the key factors necessary for operating in financial services in the modern economic environment . The article also analyzes the development of financial services. The article discusses the export of services, state financial services, financial sectors , economic cooperation , new opportunities for using export services. The

factors that play an important role in the development of financial services and their export in the conditions of Uzbekistan are emphasized.

Keywords: Services export, Public financial services , Financial sectors, Economic cooperation.

Kirish:

Hozirgi globallashuv davrida davlat iqtisodiyotining raqobatbardoshligi nafaqat tovarlar, balki xizmatlar exporti bilan ham belgilanadi. Ayniqsa, moliyaviy xizmatlar, bank, sugurta, investitsiya, audit va to'lov tizimlar kabi yo'nalishlar mamlakat iqtisodiy barqarorligida muhim o'rin tutadi. Moliyaviy xizmatlarning exportini yaxshilash davlat uchun katta foyda keltiradi. Birinchidan bu yo'l bilan mamlakatga xorijiy valyuta oqimi ko'payadi, bu esa milliy valyuta barqarorligini ta'minlaydi. Ikkinchi, export sohasining rivojlanishi yangi ish o'rinlarini yaratib, aholining daromadini oshiradi, shu bilan birga bu jarayon davlat byudjetiga tushadigan soliq hajmini, tushumlarni ko'paytiradi. Bu mamlakatning valyuta zaxirasini mustahkamlaydi. Bank, sug'urta va fintech sektorlarining kuchayishiga sabab bo'ladi. Bu eksportning noan'anaviy turi bo'lgani uchun, davlatning iqtisodiy daromadi bitta soha yoki homashyoga bog'lanib qolmaydi.

Adabiyotlar tahlili:

Zamonaviy sharoitda moliyaviy xizmatlar exportini yaxshilashni o'rganish masalasini bir nechta olim tomonidan turli nuqtai nazarlarda tadqiq etilgan. Xorijiy olimlardan Joseph F. Francois, Bernard Hoekman, Helene Rey, Kiran Sharma, Anindya S. Chakrabarti va Anirban Chakraborti jahon iqtisodiyotida yuzaga kelayotgan muammolarni tahlil qildilar.

Joseph F. Francois xizmatlar savdosi va moliyaviy xizmatlar savdosi bo'yicha juda ko'p ilmiy maqola yozgan. Masalan, "International Trade in Financial Services, Competition, And Growth Performance", maqolasida moliyaviy xizmatlar savdosi va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qiladi. Bernard Hoekman ham Joseph Francois bilan birgalikda "Services Trade and Policy", bo'yicha tadqiqotlar olib bordi. U xizmatlar savdosini liberallashtirish va bozor regulatsiyasi strategiyalariga alohida e'tibor beradi.

Helene Rey xalqaro makroiqtisodiyot va moliyaviy oqimlar bo'yicha taniqli olim hisoblanadi. Uning ishlari global moliyaviy sikl, kapital harakati va valyuta kurslari bilan bog'liq bo'lib, moliyaviy xizmatlarning xalqaro savdosiga ta'sir qiluvchi makromuhit omillarini o'rganishda ko'p foyda beradi.

Kiran Sharma, Anindya S. Chakrabarti va Anirban Chakraborti ular Multi-layered Network Structure; Relationship Between Financial and Macroeconomic Dynamics, nomli maqolada moliyaviy bozorlar bilan makroiqtisodiy zamin savdo va investitsiya o'rtasidagi murakkab bog'liqlikni tahlil qilganlar. Bu ishlar moliyaviy

xizmatlar eksportining axborot tarmoqlari , global likvidlik va makro omillar bilan qanday o`zaro aloqada bo`lishini ko`rsatadi. Mahalliy olimlar va tadqiqotchilardan, Rustam Xojiyev ‘‘O`zbekistonda eksport faoliyatini moliyaviy qo`llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish,, nomli maqola muallifi. U maqolasida mamlakat eksport salohiyati, moliyaviy qo`llab - quvvatlash tizimining mohiyati, imtiyozlar va eksportni rag`batlantirish mexanizmlarini taxlil qiladi.

Muhokama va natijalar.

Keltirib o`tilgan tadqiqotlar shuni ko`rsatadiki,moliyaviy xizmatlar exportining rivojlanishi uchun moliyaviy xizmatlarni asosan 5 yo`nalishlarini koproq korsatish kerak masalan;

1. Bank xizmatlarida- raqobat oshgani sabab xizmat sifatlari oshmoqda ,asosan hozirgi kunlarda raqamli bank xizmatlari kengaymoqda.
2. Sug`urta xizmatlari- ohirgi yillarda sug`urta xizmatlariga talab ortmoqda, ammo aholining bu soha haqidagi xabarlar past. Asosan , majburiy sug`urta {transport va tibbiy} turlari rivojlangan, ko`ngilli sug`urta hali keng tarqalmagan.
3. Moliyaviy texnologiyalar- shu 4/5 yil atrofida Fin Tech sektori jadal o`smoqda. Elektron to`lov tizimlar , mobil bankning ,onlayn kreditlash, raqamli investitsiyalar platformalari rivojlanmoqda.
4. Investitsion xizmatlar -fond bozori sekin rivojlanmoqda, ammo yangi investorlar soni kopaymoqda. Ko`pchilik hali ham bank omonatlarini asosiy moliyaviy vosita sifatida ko`radi.
5. Moliyaviy savodxonlik -eng katta muammo aholining savodhonlik darajasi pastligi va ishonchsizligi sabab ko`p hollarda kreditdan noto`g`ri foydalanish, bankomatlarda plastik kartalarini kodini2marta xato kiritish oqibatida plastik kartalarini bankomat tortib olishi yoki blok bo`lish oqibatlariga olib keladi,bundan tashqari notanish insonlarga ishonib plastik kartalarini raqamini aytish orqali kiber hujumga uchraydi.

Shu sabab davlat va xususiy sektor tomonidan moliyaviy ta`lim dasturlarini yo`lga qo`yilmoqda . Bu davlat va aholi uchun katta foyda bo`ladi , aholining moliyaviy xizmat ko`rsatishga bo`lgan bilimini va ishonchini orttiradi,buni davlatga foydasi aholi moliyaviy xizmatlar haqida chuqur bilim va ko`nikmalari orqali o`z maxsulotlaridan tashqari jismoniy xizmatlari ,bilimlari , biznes uchun kerakli ish rejalarini chet el fuqarolariga va davlatlarga ma`lum bir haq evaziga sota olishadi .Bu orqali davlatga valyuta kirib keladi.

Shuningdek, moliyaviy eksport salohiyatini oshirishga qaratilgan strategiyalar O`zbekistonning xalqaro miqyosda raqobatbardoshligini kuchaytirmoqda. Shu bilan birga moliyaviy eksport savodxonligi uchun ta`lim tizimida xalqaro standartlarga mos

mutaxassislar tayyorlash, mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning barqarorligini ta'minlash uchun zarur shart-sharoitlar yaratilmoqda.

Xizmatlar eksporti jihatidan O'zbekiston sezilarli darajada diversifikatsiyaga qo'l urgan -ya'ni faqat tovar emas Turizm, IT, xizmatlari ham rivojlanmoqda. Biroq "moliyaviy xizmatlar,, Bank moliyaviy xizmatlar, Moliyaviy operatsiyalar, Sug'urta, Pensiya va boshqa shunga o'xshash eksportlarni ayni damda xizmatlar tarkibida oddiy tasnifda kichik foizga ega. Bu moliyaviy xizmatlar hozircha strategik poydevor darajasida emas. Shu bilan birga, xizmatlar eksporti umumiy eksport ichida 20-30% atrofida bo'lgani va moliyaviy xizmatlar ularning oz qismida qatnashayotganini hisobga olsak - moliyaviy xizmatlar eksportini kengaytirish uchun hali katta potensial bor. O'zbekiston moliyaviy xizmatlar eksportini oshirmoqchi bo'lsa xalqaro standartlar asosida moliyaviy institutlar kuchaytirish, sug'urta va pensiya xizmatlarini global bozorga yo'naltirish, hamda fintech / IT orqali moliyaviy xizmatlarni raqamlashtirish yo'lini ko'rib chiqishi mumkin.

Quyidagi jadvalda O'zbekistonning xizmatlar eksporti hajmi va xizmatlar eksporti hajmi/umumiy eksport nisbati ko'rsatilgan. Raqamlar milliard USD ga yaqin va taxminiy qiymatlar:

YIL	Xizmatlarda eksport {USD, mln}/eksport xajmi
2020	1,697 mln USD
2021	2,289 mln USD
2022	4,307 mln USD
2023	5,417 mln USD
2024	6,524 mln USD

Ushbu raqamlar xizmatlar eksportini bildiradi.

2020-2024 yillarda xizmat eksporti hajmi deyarli to'rt barobarga oshgan.

- 1.7 mlrd dan 6.5 mlrd USD gacha. BU ko'rsatkich O'zbekistondagi eksportdagi diversifikatsiya va xomashyo –tovar markaziy modelidan xizmat yo'nalishlariga siljishining namunasidir. 2023-yilda yanvardan oktabrgacha holatida xizmat eksporti tarkibi asosiy yo'nalishlari ;
- Transport xizmatlari-43.2% ni tashkil qiladi.
- Turizm/travel sayohatlari-41.4% ni tashkil qiladi.
- Telekom/IT axborot-kommunikatsiya xizmatlari -7.6%
- Boshqa xizmatlar -3.2% ni tashkil qilgan.

2020-2024 yillarda xizmatlar eksporti aniq o'sish ko'rsatadi –bu iqtisodiy diversifikatsiya va xizmatlar sohasidagi salohiyatni ko'rsatadi. Biroq "moliyaviy xizmatlar,,hozircha xizmat eksportining tarkibida juda kichik qism-ya'ni

O'zbekistonnig bank- moliyaviy xizmatlarni xalqaro bozorga chiqarishga jiddiy kirsak, katta imkoniyat bor. Bunga sug'urta, pensiya xizmatlari, fintech va raqamli

moliyaviy xizmatlar , xalqaro bank operatsiyalari-bu orqali moliyaviy eksport hajmini oshirish sohalari kiradi. Shu tarzda , yuqoridagi metodlar birgalikda qo`llanilganda , xalqaro moliyaviy xizmatlarning zamonaviy sharoitida rivojlanishi tendensiyalari va istiqbollarini yanada aniq va ishonchli tahlil qilishi mumkin bo`ladi.

Xulosa

O`zbekiston so`nggi yillarda xizmatlar eksportini jadal rivojlantirish orqali iqtisodiy tarkibini zamonaviylashtirish yo`lida sezilarli qadamlar tashlamoqda. Xizmatlar eksportining 2020-2024 yillarda deyarli to`rt barobar o`sishi mamlakatning ochiqligi, raqobatbardoshligi va yangi iqtisodiy imkoniyatlarga intilayotganini yaqqol ko`rsatadi. Transport, turizm, va IT xizmatlarining yetakchilar sifatida shakllanganining o`zi O`zbekistonning global bozorlar bilan integratsiyasi tobora chuqurlashyotganidan dalolat. Ammo xizmatlar eksporti tarkibida moliyaviy xizmatlar ulushi hozircha juda kam –taxminan 1-1,5% atrofida. Bu bosqich bir tomondan sektorning hozirgi rivojlanish bosqichini ko`rsatsa, ikkinchi tomondan kelajakdagi katta o`sishning salohiyatini ham anglatadi. Zamonaviy moliya infratuzilmasi, raqamli ekotizm, fintech innovatsiyalar va xalqaro moliyaviy standartlarning joriy etilishini O`zbekistonning mintaqada moliyaviy xizmatlar eksportiga yo`naltirilgan yangi markaz sifatida shakllantirishi mumkin. Shunday qilib , bugungi vaziyat shuni ko`rsatadiki , O`zbekiston moliyaviy xizmatlar eksportida hali boshlang`ich bosqichda bo`lsa-da , mamlakatning iqtisodiy strategiyasi, geografik ustunliklari va islohotlarga sodiqligi ushbu yo`nalishlarda ulkan istiqbol va imkoniyatlari mavjudligini tasdiqlaydi. To`g`ri siyosiy yondashuv va innovatsion rivojlanish orqali moliyaviy xizmatlar yaqin kelajakda O`zbekiston eksportining muhim ustunlaridan biriga katta extimol bilan aylanishi mumkin.

Yuqoridagi keltirilgan fikrlarni inobatga olgan holda, quyidagi takliflarni ishlab chiqish va amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz;

1. Moliyaviy xizmatlar ichida davlatga ko`p foyda keltirayotgan soxalarni alohida qilib , talab bo`lmayotgan va ortda qolayotgan soxalarga ham e`tibor berilsa u soxalarga ham oz –ozdan investitsiya qilinsa maqsadga muvofiq boladi.
2. Jahonda qaysi moliyaviy soxalarga e`tibor berilayotganini o`rganib shu soxalardagi yetuk mutaxxassislarni jalb qilinsa davlatga ham foyda boladi va yangi ish o`rinlari yaratiladi bu orqali davlatda ishsizlik ham kamayadi , shu orqali davlatga valyutalar kelishni boshlaydi.
3. Chet eldagi yaxshi mutaxxasislarimizni o`zimizning yurtga chaqirib ularni ma`lum bir haq evaziga ishga jalb qilsak o`zimizdagi yetuk mutaxxasislar soni ham kopayadi va moliyaviy xizmatlar eksportimiz salohiyati oshadi. Natijada, moliyaviy xizmatlar eksportini rivojlantirish , global raqobatbardoshlikni oshirish, yangi ish o`rinlari yaratish va ijtimoiy

salohiyatni oshirishda muhim omil hisoblanadi. O'zbekiston va boshqa mamlakatlar uchun bu yo'nalishlarda samarali strategiyalar va g'oyalar ishlab chiqish va amalga oshirish o'zining iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sotvoldiyev Isomiddin- Zamonaviy sharoitda xalqaro tadbirkorlikning rivojlanish istiqbollari.
2. WWW.INFOCOM.UZ “ Raqamli iqtisodiyot” ilmiy elektron jurnali 11- son.
3. <https://lex.uz> 3384-son 06.09.2022 Moliyaviy xizmatlar iste'molchilari bilan o'zaro munosabatlarni amalga oshirish.
4. www.stat.uz
5. Joseph F. Francois “International trade in financial services , Competition and Growth Performance”
6. Bernard Hoekman “ Services Trade in Policy”
7. Kiran Sharma va Anindya S . Chakrabarti / Anirban Chakraborti “ Multi-layered Network structure; Relationship Between Financial and Macroeconomics Dynamics”